



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 161 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOIYLASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	



AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

Samatova Sevara G'ayratovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jahon amaliyotiga ko'ra, keyingi yillarda shaxsdagi yakkalanish, yolg'izlanish motivining oshib borishi jamiyatda salbiy jarayon sifatida marginalizm xodisalarini tezlashtirmoqda. Shuningdek maqolada affiliatsiya motivining "birlashmoq", "birlashtirmoq" xarakteri ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashning eng asosiy shartlarida biri ekanligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, motiv, affiliatsiya motivi, ijtimoiy munosabat, muloqot, marginalizm.

Abstract: According to the article, according to world practice, in the following years, the increase in the motive of isolation and loneliness in the individual accelerates the phenomenon of marginalization as a negative process in society. Also, in the article, it is scientifically based that the nature of the motive of affiliation «to unite», «to unite» is one of the most basic conditions for improving social relations.

Key words: behavior, motive, affiliation motive, social relationship, communication, marginalism.

Аннотация: Согласно статье, согласно мировой практике, в последующие годы усиление мотива изоляции и одиночества у личности ускоряет явление маргинализации как негативного процесса в обществе. Также в статье научно обосновано, что природа мотива принадлежности «объединиться», «объединиться» является одним из самых основных условий совершенствования общественных отношений.

Ключевые слова: поведение, мотив, мотив принадлежности, социальные отношения, общение, маргинализм.

KIRISH

Biz tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davlat sifatida ma'rifatli, demokratik va kuchli huquqiy fuqarolik jamiyatini qurar ekanmiz, birinchi navbatda jamiyatda jamoatchilik nazorati va aholining turli qatlam vakillarida daxldorlik fazilati shakllanishi kerak. Buning uchun ijtimoiy psixologiyadagi affiliatsiya motivini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Demak, mazkur motivga kengroq to'xtalamiz va uning ijtimoiy-psixologik kategoriya ekanligini mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga asoslanib nazariy jihatdan asoslab o'tamiz.

Tadqiqot maqsadi: aholi turli qatlam vakillarida affiliatsiya motivini shakllantirish orqali ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish, odamlar orasidagi marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoiy yakkalanish) omilini kamaytirishdan iboratdir.

Affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi.

Affiliatsiya motivi XX asr o'rtalaridan boshlab ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasining markaziy tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. D. MakKlelland, G. Murray va J. Atkinson kabi olimlar uni inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida talqin qilganlar. Ushbu motiv odatda quyidagi tadqiqot yo'nalishlarida chuqur o'rganiladi:

- Shaxs ijtimoiy moslashuvi: guruhga kirish, do'stlik aloqalarini shakllantirish, yolg'izlikka bardoshlik darajasi.

- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ehtiyoji: stress holatlarida boshqalardan yordam kutish tendensiyasi, xavfsizlik va emotsional tayanch izlash.

- Guruhdagi xulq-atvor: guruh me'yorlariga bo'ysunish, liderga ergashish, konfliktlardan qochish strategiyalari.

- Empatiya va interpersonallik: boshqalarni his qilish, yoqtirish-yoqtirilish ehtiyoji, "men boshqalar ko'zida qandayman?" savoliga sezgirlik.

- Ijtimoiy tarmoq va media tadqiqotlari: onlayn platformalarda do'stlik ulashish, "like" va tasdiqlovchi ishoralarga qaramlik.

- Korporativ va ta'lim muhitida: jamoaviy ishga moyillik, intizom va motivatsiyaning ijtimoiy omillarga bog'liqligi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tadqiqotlarda affiliatsiya motivi nafaqat oddiy “odam bilan bo’lish istagi”, balki psixologik xavfsizlik, ijtimoiy e’tirof va identitetni mustahkamlash mexanizmi sifatida talqin qilinmoqda. Hozirgi kunga kelib, fanda motivatsiya muammosi va uning tabiatiga oid ko’plab nazariyalar shakllangan bo’lib, xorijning o’zida aynan shu muammolarga bag’ishlangan 100 ga yaqin nazariyalar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Mazkur masala bo’yicha rus ijtimoiy psixologiyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shgan olim G. M. Andreeva [1] ta’kidlaganidek, agar sotsiologlar uchun ijtimoiy munosabatlar muhim hisoblansa, psixologlar uchun o’zaro shaxslararo munosabatlar alohida tadqiqot ob’ekti bo’lib xizmat qiladi. O’z navbatida, odamlar o’rtasida shakllanadigan shaxsiy o’zaro munosabatlar doirasi juda keng bo’lib, ularning barchasi psixologlar tomonidan alohida e’tiborni talab etadi. An’anaviy tarzda ijtimoiy psixologiyada tadqiqot ob’ekti sifatida affiliatsiya tushunchasi bilan belgilanuvchi o’zaro munosabatlar doirasi oldinga chiqadi. Aytib o’tish joizki, muvaffaqiyatga erishish, mag’lubiyatdan qochish yoki hokimiyatga intilish motivlariga nisbatan affiliativ motivlar kam o’rganilgan ijtimoiy-psixologik fenomenlar sirasiga kiradi.

Affiliatsiya motivining etimologik xususiyatlariga to’xtaladigan bo’lsak, “affiliatsiya motivi” (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq) insonni boshqa odamlar davrasida bo’lishga intilishini anglatadi. Keltirilgan ta’rifga ko’ra, sub’ektning potensial xavfli stress holatiga tushishi bilan affiliatsiya motiviga bo’lgan tendensiya ham ortib boradi. Bunda odamlar jamoasi murakkab va xavfli sharoitdagi reaksiyalar xarakteri hamda tanlangan xulq-atvor uslubining to’g’riligini yoki noto’g’riligini aniqlash imkoniga ega bo’ladi. Ma’lum doiradagi odamlar o’rtasidagi yaqinlik xavotirlanish darajasining pasayishiga olib keladi va shu bilan birga ham fiziologik, ham psixologik stressning oldini oladi yoki uning oqibatlarini yumshatadi. Affiliatsiya motivining susayishi esa yolg’izlik va begonalashuv hislarini tug’diradi hamda frustratsiyaga olib keladi [2; 43-b.].

Shuningdek, “boshqa insoniy mavjudotlarga nisbatan yaqin bog’liqlikni his etish”ni Mayers yer markazida joylashuvchi o’qqa o’xshatib, uning atrofida inson individining go’daklikdan to’olimigacha bo’lgan butun hayoti aylanadi va ushbu yaqin bog’liqliklardan insoniyat kuch hamda har kunlik hayotiy quvonch topadi, deb ta’kidlaydi. Shu ta’rifi orqali u affiliatsiya motivining tabiatini tushuntirib berishga harakat qiladi [3; 247-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so’rovnoma, kuzatish kabi metodlardan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy psixologiyada ushbu masala bo’yicha turli olimlar affiliatsiya motivatsiyasiga ta’rif berganlar. Ularning fikricha, affiliatsiya motivatsiyasi — muloqotga intilish, bilishga intilish, o’z-o’zini ta’kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar va motivlar majmuasidan iboratdir [4]. Ushbu motiv yaqqol namoyon bo’luvchi ijtimoiy xarakterga ega, chunki u boshqa odamlar bilan o’zaro munosabat doirasidagina amalga oshadi. Muloqotga bo’lgan ehtiyoj umuminsoniy ehtiyoj hisoblanib, u insonning jamoatchilik va hamkorlikka intilishi kabi fundamental baza asosida shakllanadi [5].

Tadqiqotchi X. Xekxaufen [6] affiliatsiya motivini muloqotga ehtiyoj doirasida o’rganib, bu motivning har kungi, lekin shu bilan birga fundamental xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, affiliatsiya motivi psixik hodisa, motiv, mayl, xohish, boshqa odamlarga intilish sifatida namoyon bo’ladi. Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi insonning emotsional va ishonchli aloqalarga bo’lgan ichki ehtiyoji yotadi. Odatda, bu yaqin munosabatlar o’rnatishga intilish, har ikkala tomonga qoniqish olib keluvchi muloqot jarayoni hamda birgalikdagi harakatlar majmui ko’rinishida namoyon bo’ladi. Ushbu ehtiyojning maqsadi turlicha bo’lishi mumkin, hatto bir-birini rad etuvchi (yaqin munosabatlarga erishish yoki suhbatdoshdan o’z maqsadi yo’lida foydalanish) ko’rinishlarda ham kelishi mumkin (X. Xekxaufen).

Adabiyotlarni o’rganishimiz shuni ko’rsatadiki, “affiliatsiyaga ehtiyoj” tushunchasi turli tadqiqotlarda turlicha tahlil qilingan. Affiliatsiya motivini birinchilardan bo’lib o’rgangan X. A. Myurrey tahliliga ko’ra, ushbu motivning namoyon bo’lishi ikki qirraga ega: birinchisi — shaxsiy muloqot, birlashish ehtiyoji; ikkinchisi esa — ma’lum guruhga mansublikni ifoda etadi. Birinchisida munosabatlarning ishonchliligi va emotsional aloqalarga ehtiyoj (Yan Mazurkevich, K. Obuxovskiy) alohida ta’kidlanadi. Ikkinchisida esa insonning ijtimoiy aloqalarga bo’lgan ehtiyoji (Brem, P. Bruunk), aniq bir guruhga mansubligi (D. Makklelland, Ye. V. Trifonov) va referent guruhga qanday hissiyotlar bilan qarashidan qat’i nazar, boshqa insonlar jamoasini qidirishga intilishi (Brem, P. Bruunk) nazarda tutiladi.



Aslida, affiliativ ta'sir doirasining bunday ko'pqirraliligi bir-biriga zid emas, chunki ular turli vaqt va vaziyatlarda faollashadi. Bolalik davrida bu ona bilan bo'lgan yaqin aloqa shaklida namoyon bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ushbu ehtiyojning namoyon bo'lish doirasi kengayib boradi. Endilikda nafaqat yaqin insonlar bilan emotsional aloqa o'rnatish, balki "biror narsaning asosiy elementi"ga (Bleyer) aylanishga intilish kuzatiladi.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, affiliatsiya motivatsiyasi ko'pqirrali mazmunga ega bo'lib, u odamlar bilan muloqotga kirish ehtiyoji, guruh a'zosi bo'lish, atrofdagilar bilan o'zaro aloqada bo'lish, boshqalarga yordam ko'rsatish hamda ulardan yordam qabul qilish kabi kompleks motivlarni o'z ichiga oladi. Shu bois u ijtimoiy psixologlar uchun maxsus tadqiqot predmetiga aylangan. Ushbu hodisaga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, ko'pincha affiliatsiya motivatsiyasi deganda, insonning odamlar davrasida bo'lishga, ular bilan muloqotda bo'lishga, ular tomonidan tan olinishga, ular bilan ijobiy shaxsiy munosabatlar o'rnatish va saqlab qolishga intilishi tushuniladi.

Tadqiqotimiz doirasida, mahalliy olim N. Norqulova tadqiqotlariga asoslanib, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan (tanish, notanish va kam tanish) muloqot o'rnatish natijasida har ikkala tomonda birday qoniqlik hosil qiluvchi, muloqot jarayonini mazmun bilan boyituvchi va unga faol kirishishga undovchi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning muayyan sinfi tushuniladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin [7].

Affiliatsiya motivining o'ziga xos bir qator funksiyalari mavjud bo'lib, ularni G. M. Andreeva, A. A. Bodalyov, B. F. Lomov, A. A. Leontev va boshqa olimlar o'z ilmiy izlanishlarida tizimlashtirib o'rganganlar. Tadqiqotchi X. A. Myurrey esa odamlar o'rtasidagi bog'liqlik ehtiyojining to'rt turini ajratadi [X. Xekxaufen]:

1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji);
2. Rad etilish ehtiyoji (ob'ektlarni inkor etish, chetda qolish);
3. Rahnamolik ehtiyoji (himoya qilish);
4. Qo'llab-quvvatlash ehtiyoji (yordam va himoya qidirish).

Affiliatsiya motivining tarkibiy qismlarga bo'linishi A. Megrabyan tomonidan o'tkazilgan tajriba ishlariga asoslanib kiritilgan bo'lib, muallif ushbu motivni ikkita motivator — affiliatsiyaga yo'nalganlik va rad etilishdan qo'rquv motivatorlariga ajratadi. Ularning asosida esa shaxslararo o'zaro ta'sirlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi yotadi [8].

Tadqiqotchi A. Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida affiliatsiyaga bo'lgan ehtiyoj konsepsiyasini ilgari suradi. Maslou fikricha, inson tug'ilganida faqat fiziologik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ma'lum muddatdan so'ng esa bola ijtimoiy bog'liqlikning dastlabki belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon eta boshlaydi. Keyinchalik esa bola ota-ona muhabbati va g'amxo'rligini his etganidan so'ng unda avtonomlikka, mustaqillikka, maqsad va maqtov orqali muvaffaqiyatga erishishga intilish shakllanadi (A. Maslou, 1999).

Demak, bolaning ilk ontogenez davrida ushbu ehtiyojlarning qondirilmasligi insonning tashqi muhitga keyingi ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hatto to'g'rilab bo'lmas asoratlarga olib kelishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi [9].

Ko'pgina tadqiqotchilar bu fikrni qo'llab-quvvatlab, bolaning shaxsiy xususiyatlari asosini unga g'amxo'rlik qiluvchi kattalar bilan o'zaro aloqa davridayoq shakllanishini ta'kidlaydilar. Ular o'rtasidagi affektiv aloqa muhim o'rin tutadi. Emotsional bog'lanish va sevgiga ehtiyoj nafaqat xulqni, balki butun inson hayotini belgilovchi asosiy ehtiyojlardan biridir. Z. Freyd psixoanalizida ham, ko'pgina psixolog va psixoterapevtlarning konsepsiyalarida ham nevroz asosida yoshligida mehr ko'rmagan yoki muhabbatga to'ymaganlik natijasida paydo bo'ladigan nerv-psixik buzilishlar yotadi, degan fikr ilgari suriladi.

Affiliatsiya motivi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uning ijtimoiy-psixologik kategoriya ekanligi ilmiy asoslangan. Ushbu motiv aholining turli qatlam vakillarida o'zaro munosabatlarda namoyon bo'lib, uning shakllanishi o'zaro ahillik, birlashish, ko'maklashish, bir-birini to'laqonli anglash, bir-biriga yordam berish va ob'ektiv munosabat o'rnatish kabi tayanch mezonlarni shakllantiradi.

Masalaga oid rus, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ushbu motiv hamda motivatsiya muammosi psixologik kategoriya sifatida talqin etilgan va unga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashilgan. Bu yondashuvlar affiliatsiya motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik kategoriya ekanligini va guruhij jarayonlar hamda faoliyat doirasida aynan ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Nazariy o'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, affiliatsiya motivatsiyasi muammosi ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy xulq va muomala kategoriyalari bilan uzviy tarzda bog'liq bo'lib, u ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tayanch motiv ekanligini ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik qonuniyat mavjud.


Tadqiqot doirasida o'rganilgan affiliatsiya motivi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi uchun eng muhim ijtimoiy-psixologik hodisalardan biri ekanligi nazariy jihatdan ilmiy asoslandi. Shuningdek, affiliatsiya motivi odamlarning o'zaro, shuningdek oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'lib, uning shakllanishi "hamjihatlikka intilish", "hamkorlikka intilish", "ahillikka intilish", "bir-birini tushunishga intilish", "empatiya" kabi tayanch mezonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining turli qatlam vakillarida affiliatsiya motivatsiyasining namoyon bo'lishi ijtimoiy munosabatlar barqarorligiga ta'sir ko'rsatar ekan, demak, u bilan bog'liq barcha ijtimoiy-psixologik determinantlarni empirik jihatdan puxta o'rganish va mazkur ijtimoiy xulqni boshqarish mezonlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, o'z xulq-atvorida yuqori affiliatsiyani namoyon etgan aholining turli qatlam vakillari ijtimoiy munosabatlarni oson o'zlashtirishi, odamlarga nisbatan sezgirligi va muloqotga moyilligi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алёшина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование.- Изд.2-е.-М.: Независимая фирма «Класс», 1999.-208с.
2. Хайдаров Ф.И. Формирование мотивов учения у учащихся сельских школ: Автореф.дис. ... канд. пед. наук.- Ташкент: ТГПУ, 1996. – 18 с.
3. Чориев А.И. Социальный облик современной молодёжи. -Т.:Ўзбекистон, 1996. – 150 б.
4. Творогова Н.Д. Клиническая психология. Словарь / Под ред. Творогова Н.Д. – М.: ПЕР СЭ, 2007. - 374 с.
5. Чхартишвили Ш.Н. Природа и виды социогенной потребности// проблема формирование социогенных потребностей. – Тбилиси, 1974. - С. 115-119.
6. Зейгарник Б.В.Теория личности в зарубежной психологии- М.:МГУ,1981.– 128с.
7. Jabborov X.X. "O'smirda mi liy tarbiya shak lanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
8. Жабборов Хазрат Хусенович. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
9. Jabborov Kh.Kh. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677
10. Online Link:- <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765>



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.